

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi.....	332
U.N.Olimov	
Arab tarixshunosligida XIX asr oxirida Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar va Rossiya imperiyasi bosqinining o'rganilishi	336
M.Q.Tolibboyev	
O'zbekiston hududida mahallaga xos ilk belgilarning paydo bo'lishi va boshqaruv an'analarga doir mulohazalar	340
X.S.Jumanazarov	
Xalq tabobatida davolash usullarining mintaqaviy xususiyatlari.....	346
Sh.N.Jo'rayev	
Sulton Husayn Boyqaro davrida diniy ulamolarning o'rni.....	351
O.M.Normatov	
O'zbekistonda o'tkazilgan rayonlashtirish natijalari.....	356
D.G'.Mirzayev	
"Turkiston viloyatining gazetasi" da Qo'qon xonligining bosib olinishiga oid ma'lumotlar tahlili	361
A.O.Toirov	
Anushteginiylar sulolasi davrida ijtimoiy hayot.....	369
P.A.Nabiyev	
"Farg'ona vodiysi tojiklarining farzand tug'ilishi va to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va an'analari (Qorategin tojiklari misolida)"	373
A.A.Mamadjanov	
Muhammad Vafo Karmanagiy – Buxoro amirligi tarixchilik maktabining ilk vakili	378
P.A.Арслонзода	
Тасвири макотиб ва мадориси аморати бухоро дар "Ёддоштҳо"-и Садриддин Айни	382

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.A.Kasimov, Sh.G'.Akbarova	
Badiiy retsepsiyaning nazariy asoslariga doir.....	389
Z.J.Pardayeva	
Dostoevskiy, Baxtin, Polifonik roman	393
H.Jo'rayev	
Totem tushunchalarning ijtimoiy tafakkur tarixidagi o'rni.....	401
K.A.Jamahmatov	
Adabiy manbalarda Arshiy Termiziyning hayoti va ijodiy faoliyatining tadqiqi	404
X.Jo'rayev, M.Ismoilova	
Ijtimoiy tafakkurning majoziy ifodasi	410
I.I.Rustamova	
Dramada sahnada ko'rinmaydigan qahramon va uning badiiy talqini	413
M.A.Jo'rayeva	
Jadid adabiyotida safarnoma janri va uning taraqqiyoti	417
M.Islomova	
Taqlid va Tasvir	421
D.G'.Gafurova, A.A.Qayumov	
Isajon Sulton hikoyalarda shamol timsoli.....	424
X.T.Мирзаев	
Талқини рукнҳои арӯзӣ дар рисолаи "Меъроҷ-ул-арӯз"-и Муҳаммад Фиёсиддин	428
N.Q.Bo'riyeva	
J.R.R.Tolkinning "Uzoklar hukmdori" asarida yaxshilik kontsepti.....	433
M.Sh.Dehqonova	
Mustaqillik davri dramaturgiyasi va adabiy tanqid.....	440
G.A.Mashrapova	
Ertak syujet tiplarida qidiruvga qarshi safar (antiqidiruv) motivi turlari.....	445
Q.V.Yo'lchiyev	
Abdulla Sherning "Ikki ayol haqida qo'shiq" she'ri tahlili	449
B.N.Isakova	
Adabiyotda badiiy va mushtarak tarjimaning ahamiyati	456



UO'K: 821.512. 133.09-1(Sh)

ABDULLA SHERNING "IKKI AYOL HAQIDA QO'SHIQ" SHE'RI TAHLILI**ANALYSIS OF ABDULLAH SHER'S POEM "SONG OF TWO WOMEN"****АНАЛИЗ СТИХОТВОРЕНИЯ АБДУЛЛЫ ШЕРА «ПЕСНЯ О ДВУХ ЖЕНЩИНАХ»****Yo'Ichiyev Qahhor Vahobovich**

Farg'ona davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Sherning bir she'ri tahlili misolida Vatanga muhabbat, ayol sadoqati, oilaviy qadriyatlar kabi ijtimoiy muammolarga badiiy yechim berilgan. Kirish qismida muammoning dolzarbligi asoslangan, shoir haqida fikr bildirgan yetakchi olimlar ishlari va ular yoritilgan masalalarga izoh berilgan. Maqolaning metodologik asosi belgilangan. Natijalar va tahlillar qismida manbalardagi fikr-mulohazalardan kelingan natijalar, shoirning borliqni badiiy idrok etishi, shaxsiy izlanishlari "Ikki ayol haqida qo'shiq" she'ri tahlili misolida yoritilgan. Maqola oxirida izlanish davomida kelingan ilmiy xulosalar sanab ko'rsatilgan.

Abstract

The article provides a literary solution to social issues such as love for the Motherland, the fidelity of woman, family values in the example of an analysis of a poem by the national poet of Uzbekistan Abdulla Sher. In the introductory part, the relevance of the problem is based on the works of leading scientists who expressed their opinion about the poet and the issues they covered. The methodological basis of the article is determined. The "Results and Analysis" section highlights the results of source reviews, the poet's literary perception of existence, and personal research using the example of an analysis of "a poem about two women". The scientific conclusions about the study are enumerated at the end of the article.

Аннотация

В статье на примере анализа стихотворения народного поэта Узбекистана Абдуллы Шера приводится художественное решение таких социальных проблем, как любовь к Родине, женская верность, семейные ценности. Во вступительной части актуальность проблемы основана на работах ведущих ученых, комментировавших поэта и освещаемые ими вопросы. Определена методологическая основа статьи. В разделе «Итоги и анализ» освещены результаты отзывов источников, художественного восприятия поэтом бытия, личных исследований на примере анализа стиха о двух женщинах. Научные выводы, сделанные в ходе исследования, изложены в конце статьи.

Kalit so'zlar: obraz, metafora, epitet, sinekdoxa, portret, xarakter, lirik kechinma, lirik subyekt, ruhiy parallelizm, badiiy tasviriy vositalar.

Key words: image, metaphor, epithet, synecdoche, portrait, character, lyrical experience, lyrical subject, parallelism, artistic visual means.

Ключевые слова: образ, метафора, эпитет, синекдоха, портрет, персонаж, лирический опыт, лирический субъект, параллелизм, художественные изобразительные средства.

KIRISH

Yangi O'zbekiston sharoitida jamiyat fikrini to'g'ri shakllantirish, mavjud adabiy-badiiy, ijtimoiy-falsafiy qarashlarni xalq badiiy tafakkurini rivojlanishiga yo'naltirish ehtiyoji paydo bo'ldi. Zero, "Yangi O'zbekistonni barpo etishning mintaqaviy va umumbashariy omillari ham bor" [1,33] ligi adabiyotshunoslar zimmasiga jamiyat badiiy-estetik tafakkurini taraqqiyotini rivojlantirishni o'rganish vazifasini qo'yadi. Shu ma'noda Abdulla Sher she'riyatidagi lirik obraz, uning lirik kompozitsiyadagi o'rni kabi nazariy masalalar bilan birga, Vatanga muhabbat, ayol sadoqati, oilaviy qadriyat kabi ijtimoiy tushunchalarning badiiy ifodasini o'rganish dolzarb sanaladi. Zero, "Poetik olam alohida – poetik qonunlar faoliyati mahsuli sifatida paydo bo'lmaydi, u poetik olamni anglash va yaratish jarayonida dolzarb bo'ladigan eng umumiy – "dunyoviy" qonuniyatlarning faol ishtiroki natijasida shakllanadi. Ijodkor inson (muallif), yaratilgan odam (qahramon) va yaratilgan asarni anglovchi inson (o'quvchi) haqiqiy olam qonunlari bilan yashaydi. Bu poetik qonunlardir" [5, 32].

Chunki shoir o'zi anglagan, tushungan olamni o'z davri va xalqi mansub bo'lgan badiiy-estetik qarashlar asosida yashovchi personaj orqali o'quvchiga etkazishga intiladi. Demak, bu erda aniq shoir yaratgan lirik qahramon muallif va o'quvchi o'rtasidagi badiiy muloqotni olib boruvchi odam vazifasida keladi. Ya'ni shoir o'zi yaratgan lirik olamni, konkret obraz yordamida yoritadi (chunki lirik subyekt hamma vaqt ham aynan muallif bo'lmasligi mumkin). O'quvchi esa ana shu yaratilgan lirik subyekt orqali badiiy-estetik ma'lumotlarga ega bo'ladi. Bu esa zamonaviy jamiyatda badiiy tafakkur shakllanishi, badiiy g'oyalarning ijtimoiy ahamiyatini ko'rsatishda asosiy omil vazifasini o'taydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Badiiy obraz, xususan, ayol obrazi misolida o'zbek ayoli sadoqati, metin irodasi va oila qadriyatining badiiy ifodasini Abdulla SHER she'rida misolida ilmiy asoslash, lirik obraz va uning badiiy-estetik funksiyasini ko'rsatish, lirik qahramon ruhiyatini, xarakterini ifodalashda metafora, epitet, portretning ahamiyatini tahlil asosida aniqlash ba'zi bir fikrlar aytilgan. Xususan, O.Sharafiddinov Abdulla Sherning "Ikki ayol haqida qo'shiq" she'riga to'g'ri ta'rif beradi: "She'rdagi erini va o'g'lini frontga jo'natgan qaynona va kelin obrazi yaratilgan. Bu ikki ayol urush tufayli eng aziz odamlaridan judo bo'ladilar va qolgan umrlarini bir- birlariga suyanib, bir-birlariga dalda berib, biri erini, ikkinchisi o'g'lini kutish bilan o'tkazadi. SHoir ularning matonatini chuqur ifodalaydigan tabiiy va ta'sirli so'zlarni topa olgan" [6, 7]. Professor N.Rahimjonov yetmishinchi yillar dostonchiligi va mustaqillik davri o'zbek she'riyatini haqida fikr yuritayotib Abdulla SHER ijodiga to'xtalgan [4]. A.Rasulov ham mustaqillik davri she'riyatining ba'zi jihatlari o'rganish jarayonida Abdulla SHER she'riyatining yetakchi jihatlari haqidagi mulohazalarini aytgan [3]. D.Quronov esa lirik she'r nazariyasi, xususan, lirik kechinma-obraz, kompozitsiya, lirik syujet, she'riy nutq, lirik janr masalalarini jiddiy tadqiq etgan [10]. G.Oripova ham shoarning ba'zi she'rlarini tahlilga tortgan [2]. Ammo manbalar ayol sadoqati, vatanga muhabbat g'oyalarning badiiy ifodasini yetarli darajada yoritmagan.

Holbuki, Abdulla Sherning ikkinchi jahon urushida farzandi yoki turmush o'rtog'i vafot etgan o'zbek ayolining tasviri orqali xalqimizning sadoqat, vafo va iroda ayol haqidagi tushunchalari ifodalanadi. Aslida o'tgan asrda urush va boshqa ijtimoiy sabablar oqibatida ko'plab erkaklar erta vafot etgan. Natijada, ko'plab ayollar beva qolgan, boshqa oila qurmasdan yashagan. Bunday yashash uchun katta iroda, matonat kerak. Zero, "vafo va sadoqat" belgisiga aylanish zaminida yo'qotishning beaded alam-iztiroblari, atrofdagi do'st-dushman murg'ak farzandlardan yashirincha to'kilgan ko'zyoshlar, qondirilmasligi muqarrar sog'inchi hissi kabilar yotadi" [10, 95]. Fikrimiz isboti uchun Abdulla SHerning "Ikki ayol haqida qo'shiq" she'rini keltirish mumkin [7, 41]. Aslida XX asr ikkinchi yarmidagi o'zbek adabiyotida «bevalar», urushda farzandidan ayrilgan oilalar tasviri obrazi salmoqli o'ringa ega. Bu esa zamonaviy o'zbek jamiyatida shakllanayotgan milliy qadriyatlar tizimida yuqoridagi masalalarning bo'lishi shartligi bilan izohlanadi.

NATIJALAR VA TAHLILLAR

Agar sarlavha tashqi kompozitsiyaning epigraf, she'r kimga atalganligi, she'r yozilgan joy, sana kabi unsurlari qatorida ma'lum badiiy-g'oyaviy vazifa bajarishini inobatga olsak, biz tahlilga tortmoqchi bo'lgan she'rning sarlavhasi undagi mavzu haqida umumiy tushuncha beradi. Bundan tashqari, o'quvchini she'r mazmuniga tayyorlaydi, unda she'r haqidagi dastlabki tasavvurni shakllantiradi. Abdulla Sherning o'z she'riga "Ikki ayol haqida qo'shiq" deb nom berishidan tushunish mumkinki, unda ikki ayol bilan bog'liq voqea bayon etiladi. Asar she'r bo'lgani uchun unda lirik syujet boshlanma, o'y-fikr, rivoj, kechinma, qisman voqea va yakundan iborat. She'r 1968 yili Toshkent shahrida yozilganligi matn so'nggida ko'rsatilgan. Bu esa o'tgan asrning oltmishinchi yillarida sadoqat, ayol matonati haqidagi ma'naviy fazilatlarining real prototipi ko'proq ekanligini bildiradi.

To'g'ri, ayollar haqida, ayniqsa, ikkinchi jahon urushida vafot etgan turmush o'rtog'ini sadoqat bilan kutgan ayol haqida so'z borganda Abdulla Oripovning mashhur "Ayol" she'ri ham birinchilardan eslanadi. Ammo bu erda o'xshash voqelikka shoirlarning individual yondashuvi, o'ziga xos bo'lgan ifoda tarzini, lirik kompozitsiyaning farqli strukturasi kuzatish mumkin. Ayniqsa, ular she'rlaridagi romantik kayfiyat, realistik tasvir, borlikni badiiy-estetik idrok qilish va jahon she'riyatining ilg'or she'riy janr va shakllarini sintez qilish orqali o'ziga xos shakliy-uslubiy izlanish olib borgan Abdulla SHER ijodidagi shakliy-kompozitsion yangilanishlarning ijtimoiy asoslari,

ADABIYOTSHUNOSLIK

omillarini o'rganish yordamida she'riyatimiz taraqqiyotining kelajakdagi yo'nalishlarini belgilash mumkin. Serqirra va ziddiyatli jamiyatni badiiy-estetik idrok etishning yetakchi vositasi sifatida jamiyatdagi turli salbiy jihatlarni tuzatish imkonini bergan. Buni shoirning "Ikki ayol haqida qo'shiq" she'ri tahlilida kuzatish mumkin:

Qor tagida chanoq,
 Tilingan qo'llar...
 "Har misqol paxta jangchini qo'llar!"
 Tilingan qo'llar
 Quyoshli kunlarda terishni tush ko'rar.
 Biroq.
 Er – qattiq, osmon – yiroq... [7,41]

Nisbatan kattaroq, ko'lamdor ushbu she'r ijroviy lirikaga mansub bo'lib, yuqoridagi parcha ekspozitsiya vazifasida kelgan. Unda lirik subyekt o'zi ko'rgan voqelikni umumiy tasvirlaydi. Urush paytidagi qishloq odamlarining og'ir hayoti "chanoq", "qo'llar", "tush" detallari va ularga berilgan epitet, sifatlovchi, aniqlanovchilar ("*qor tagida*", "*tilingan*", "*quyoshli kunlarda*") orqali kartina ko'rsatilgan. Parchadagi stilistik semantik xususiyat bir shoir ("*Har misqol paxta jangchini qo'llar!*") va maqol ("*Er – qattiq, osmon – yiroq...*") kuchaytirilib badiiy mukammallikka olib chiqilgan. Mazmuniy kompozitsion jihatdan yuqoridagi parcha tezis vazifasida kelgan. Chunki u yerda "qor tagidagi chanoq", "tilingan qo'llar" kabi jumlar, shior va maqol umuman sobiq imperiyaning umumiy xarakterini ochib bergan. Tasvirlangan kartinada paxta terish, demak kech kuzdagi holat, vaziyat berilgan. Paxta tergani chiqqan terimchilar, ularning sovuqdan va qurigan chanoqning uchidan tilingan qo'llari orqali shaxsning obrazi berilgan. "Tilingan qo'l" so'z birikmasi takror qo'llanib, bu yerda personajning tilingan yuragiga ham ishora qiladi. Demak, aynan shu yerda uning badiiy-estetik vazifasi kengayib, qor detali, shiorning ruhiy ta'siri orqali lirik ekspozitsiya mazmunida ifodalangan lirik kechinma tabiatidagi tushkunlikni, uning ilojsizlik, og'ir mehnat, mashaqqat bilan bog'liqligini ochib bergan. SHunchaki ochib bermagan, balki, "*Er – qattiq, osmon – yiroq...*" misrasi orqali dramatik kategoriyadan tragiklikka olib chiqqan. Chunki dastlabki misralardan "*qor tagida chanoq*", "*tilingan qo'llar*" birikmalarining kelishi lirik subyekt tasvirlayotgan paxta teruvchi va uning fojiasini ko'rsatgan. Keyin esa bunday ilojsizlikdan iroda, ma'naviy kuch-qudrat, sabr-toqat bilan, shuningdek ruhiy ulug'vorlik bilan omon chiqish mumkinligi ta'kidlangan.

She'rning keyingi bandida oqshom, hovli metaforik asosda obrazga aylanadi. So'ng lirik syujetning tugunini ifodalaydi:

YAxdek bulutlardan toyilgan oqshom
 Titrab, gindiraklab yiqila boshlar.
 Uvullagan hovlidan cho'chib,
 Kulbalarga tiqila boshlar.[7, 41]

Bu erda oqshomning sirpanchiq yo'lda yurgan odamga o'xshatilishi, uning ruhiyatida titroq borligi, o'z muvozanatini saqlay olmasligi va alaloqibat uvullagan hovlidan cho'chishi o'quvchi qalbiga vahima soladi, allaqanday falokatdan o'quvchiga xabar beradi. Chunki oqshomning ortidan it quvgan boladek gindiraklab ketishi, hamma o'ziga vatan bilgan hovli birdek uvullab yuborishi ortida bu xonadonga o'lim soya solayotganidan dalolat beradi. SHu erda lirik she'r biz ko'nikkan yorqin tuyg'ular, romantik kayfiyat berishi, kutilmagan badiiy topilma bilan o'quvchi dili va idrokini tiniqlashi kabi vazifalari o'rniga avvalgi banddagi kabi sovuq, xira ranglar hamda tund tabiatli kechinmani ifodalaydi. Zero, buyuk nemis faylasufi, shoiri Gyote ta'kidlaganidek, "aslida alohida olingan fojiana vislar o'rniga ularni dunyoga keltirgan davr va millatdan hayratga tushishimiz kerak... Bu –ulug'lik. Qudrat, ruhiy sog'lomlik, chin insoniylik, o'ta donishmandlik, yuksak fikrlash tarzi, dunyoqarash yorqinligi va shu kabi ijobiy fazilatlarining jamlanmasidir" [8, 514]. Chunki sovuqni, oqshomni qo'rqib titragan odamga o'xshashini anglash uchun millat tushuncha va tasavvurining keng, yorqin ideallarini anglash lozim bo'ladi. SHu ma'noda yuqoridagi she'riy parchada e'tibor qilingan tundlik, oqshomning gindiraklab yiqilishi ortidan shaxs umrining nozik pallalari nazarda tutilgan. Olam urush girdobida va bundagi jamiyat muvozanatini yo'qotish arafasida, unda odam muqim yashab qolishi va kelajakka etib olishi uchun metin iroda, ulug'vor qalb, ma'naviy butunlik, nekinlik kerak. Bu nekinlik kulbadagi qorachiroqda ko'rinadi. Unga shoir "lip-lip etib yonayotgan"

deya ta'rif berar ekan, u bevosita tashqaridagi sovuqni emas, kishilar qalbidagi sovuqni yoritadigan umidda aylangandek tasvirlaydi:

Kulbada.

Qorachiroq lip-lip etadi.

To'rtta sholg'om jajji dekchada,

Ikki juft ko'z jajji dekchada. [7, 41]

Shu yerda sinekdoxa usuli (*ikki juft ko'z*) bilan she'riy matnga aniq lirik personajlar olib kiriladi. Lirik subyekt ijroviy lirika qahramonlarining urushga ketgan o'g'li va erini kutib, ayriliq, ochlik, mashaqqat, mehnat, sovuq va qiyinchiliklarda yashayotgan shu ikki ayolni tasvirlar ekan, g'am jussasini kichraytirib yuborganiga, butun vujudi ko'zga aylanganiga ishora qiladi. YA'ni qozon ham kichik, unda to'rtta sholg'omni suvga solib, qaynashini kutib ochlikdan sillasi qurigan kishilar ekanliklarini ta'kidlagan. Lekin ularda hali ishonch, umid bor. SHu sabab sholg'omga tikilib o'tirishar ekan, bu kunlar o'tib ketishiga, chidash zarurligini bilishadi. She'rning shu qismigacha bo'lgan tasvir, lirik kechinma ifodasidagi turli detallar barchasi umumiy ma'noda, lirik subyekt o'zi anglagan borliq, turmush haqidagi tushuncha, tasavvurlarini ifodalash maqsadida yaratgan obrazi edi. Aniqrog'i, jamiyat obrazi, vaziyat, holat tasviri edi. Garchi bu erda nur, oydinlik haqida so'z bormayotgan bo'lsa-da, parchadagi qorachiroq, dekcha, sholg'om va ikki odam tasviri ortida hayotga umid, kelajakka bo'lgan ishonchini yo'qotmagan mardonavor shaxslar obrazi berilgan.

Lirik voqelik rivojining shu erida kutilmagan burilish yuz beradi. Buni ham shoir quyuq kechinmalar orqali quyidagicha tasvirlaydi:

Nogoh

Kuyuk pilik titrab ketadi:

Kimdir kirib kelar zo'rg'a ko'chadan

Va birdan

Kulbani "Oh!" titratadi,

Kulbani qoraxat yutadi,

Ayoz elgan

olam –qop-qora,

Qora, qora, qora!.. [7, 41]

Bizga ma'lumki, pilik yonganda sekin tebranib yonadi, mumtoz she'riyatimizda pilikning yonishi oshiqning hijron olovida kuyishiga o'xshatilishi bor gap, lekin bu erda ana shu an'anaviy tasvirga yangicha yondashuv kuzatiladi. Bu yerda "*Kuyuk pilik titrab ketadi*". Kuyuk so'zi ham qalbi kuyuk ikki ayol ruhiyatiga mos ravishda qo'llanadi. Aniqrog'i ruhiy parallelizm usuli kiritilgan. Pilikning nogoh titrashi ortidan voqea bayoniga tashqaridan kelgan ovoz kirib keladi. Ma'lum qilinadiki, kimdir zo'rg'a yurib kelmoqda. Bu holatni tashqaridagi qahraton sovuq, ochlik, unchamuncha odam ko'chada yurmasligi bilan bog'lash mumkin. Ammo kelayotgan odam o'lim haqidagi xabar –qora xat olib kelayotgan pochta edi. Pochtachining yo'lga ko'z tikib, bizga urushdagi o'g'limizdan yoki turmush o'rtog'imizdan xat olib kelarmikan, deb har gal umid bilan o'tirgan ayollarga sovuq xabar olib kelayotgani uchun u ohir qadamlar bilan kelmoqda. Chunki fojiani yetkazish uchun ham kishida matonat, hamdardlik hissi bo'lishi, kelayotgan xonadonda har narsaga tayyor turishi kerak bo'ladi. SHoir kelayotgan kishi, ya'ni "*kimdir*" pochta ekanligini aytmaydi. Unda ism ham yo'q. Chunki lirik syujetga voqealar rivojini davom ettirish, obrazlar ruhiyatini teranroq ochish uchun shu nuqtaga o'sha "*kimdir*" kerak edi. Shuning uchun uni asarga kiritadi. Og'ir qadamlar bilan, zo'rg'a kelishining o'ziyoq o'quvchida assotsiativ tarzda sovuq xabar olib kelyapti, degan fikrni uyg'otadi. So'ngra qoraxat detali farzandini kutayotgan ona, kuyovini kutayotgan kelinning she'rning shu qismigacha bo'lgan sovuq, rutubatli, tundli, dardli tasviri zamiridagi fojiaga oydinlik kiritadi. Bu o'g'lini urushga kuzatgan ona va undan xabar kelmayotganligidan ruhan iztirobdaligi tasviri ekan. Ikkinchi tasvir esa sevimli yorini kutib, hijrondagi kelin, baxti yarim bo'lgan ayolniki bo'lgani aniq bo'ladi. Lekin shoir fojiani shunchaki bayon etmaydi. Bu farzand yoki yor dog'i shunday ulkan, qayg'uli dardki uning zalvoridan uy titrab ketadi, qora so'z orttirma darajasi (qop-qora) bilan birga yana besh marta tarorlanadi. SHu o'rinda ruhiy parallelizm birinchi odinga chiqadi. Lirik suyekt o'zi bayon qilayotgan lirik voqealik bilan obrazlar mohiyatining yaxlitligini ta'minlash uchun metaforik asosda "olam – qop-qora"ligini ta'kidlaydi. Chunki farzandi va yoridan ayrilgan ayollar uchun olam qorong'ilashadi. Bunday ulkan iztirob, yo'qotish kishining

ADABIYOTSHUNOSLIK

xushdan ketkazadi. Buni keyingi misradan anglash mumkin. Lekin shu erda qaynona, kelinga shum xabarni olib kelgan odam ham oq emas, qora, qop-qora ekanligiga urg'u beriladi. Personajlar va lirik ifoda zamiridagi kechinma tabiati ham fojaviylik tusini oladi. Natijada undov belgisi va ko'p nuqta bilan ifodalab bo'lmaydigan kechinma dinamikasini beradi. Birinchi qaraganda, shu erda o'quvchi his etadigan fojaviy kechinma tugashi kerak. Ammo voqelik real hayotdan olingan. Hayot esa davom etadi.

Hushiga keltirdilar qaynona-kelin...
O'lim yulib olganday tilin
Ular jim... jim...
– Eh, shafqatsiz falak!
La'nati urush! – Kirib kelgan odam ketadi –
Berolmay turish. [7, 41-42]

Mazkur banddan ko'rinadiki, she'r boshida og'ir qadam tashlab kelgan odamda ham yurak bor. U ham falakka nido qiladi, urushni la'natlaydi, yuragi ona va kelin holatiga dosh berolmaydi. Chunki metaforik asosda o'limning obrazga aylantirilishi va qaynona-kelin tilini yulib olganday tasavvurga yaqinlashtirilishi lirik syujetning ta'sirli nuqtalaridan yana biri sanaladi. Mazkur parchada urush ayollarining mungli portreti badiiy niyatining reallashuvini ko'ramiz. Bu niyatning o'zbek ayollari matonati, irodasi, ma'naviy jasorati haqida bo'lgani tabiiy.

Aslida mazkur "she'rning yozilishi va unda ijtimoiy muammoning ifodalanishiga lirik subyekt mavjudligi, jamiyat taraqqiyotidagi ma'lum voqelik sabab bo'ladi" [9, 132]. Shu ma'noda urush va uning asoratlariga oid lirik asarlar talaygina, ammo Abdulla SHerning ushbu she'ri lirik syujeti bo'rtib turishi, tuzilishi, badiiy ifodadagi o'ziga xosligi, vaznidagi erkinlik kabilar bilan ajralib turadi. Xususan, tahlilga tortilgan she'r tuzilishi jihatdan ikki qismdan iborat bo'lib, yuqoridagi band she'rning birinchi qismi oxirgisi ekanligini ko'rsatadi. Keyingi band esa ikkinchi qismini boshlab beradi. Unda endi vaqt o'tishi, syujet liniyasidagi voqealar tezlashganini kuzatish mumkin:

Kun o'tdi. Tun o'tdi. Bir, ikki, uch ...
Aza ochmadilar qaynona-kelin.
Kipriklar supurdi yigitning yo'lin...
Yil o'tdi, yil o'tdi...
Tugadi urush. [42]

Mazkur parchaning birinchi misrasida ona o'g'lidan, kelin turmush o'rtog'idan ayrilgan kun, qoraxat kelgan kundan ancha vaqt o'tgani, qaynona-kelin bu sovuq xabarga ishonmasdan aza ochmagani, umid bilan biri o'g'lini, ikkinchisi erini kutganini keltiriladi. Shu erda nimaga o'lgan odamga aza ochilmagan, degan savol tug'iladi. Chunki urushning suronli kunlarida kimdir o'g'lidan qoraxat olib, aza ochsa, oradan ma'lum vaqt o'tgach, qoraxat noto'g'ri kelgani oydinlashgan va o'ldi deya aza ochilgan odam o'zi uyiga qaytgani bilan bog'liq voqealar ko'p uchragan. Bu masalaning bir tomoni bo'lsa, she'rdagi ikki ayol o'z yaqinini yo'qotganiga ishonmaydi, umid qiladi. Shuning uchun ham aza ochmaydi. Shoir buni ikki ayol obrazi misolida chiroyli tasvirlab beradi:

G'oliblar qaytdilar,
Yigit qaytmadi.
Ammo demadilar:
"Bas endi kutish!"
Qaynona ham aytmadi,
Kelin ham aytmadi. [42]

Mazkur bandda she'rning boshidan beri ta'riflanib kelingan obrazlar ruhiyatini ham aks ettirishga o'tiladi. Yuqoridagi parchada urush tugab, g'oliblar qaytgani. Ammo qaynona-kelin kutgan yigit urushdan qaytmaydi. Bu ikki obraz shunda ham taqdirga tan berib, ustiga ko'k kiymaydi. Shu yerda ikki ayolning taqdir, qismat, hayot hukmlariga qarshi kurashi ham borligi oydinlashadi. Bu ularning o'sha yigitga bergan mehri-muhabbati mahsuli o'laroq, ularni kutishga, umid qilishga undaydi. Garchi bu mantiqsizdek tuyulsa-da, inson ruhining nozik qirralari, kishi qat'yati, o'z sevgisi va farzandiga bo'lgan sadoqati, yigitga bergan va'dasiga sodiq qolishiga namuna sifatida olinadi. Shoir endi bu ikki ayol xotira bilan tirikligini, bu xotirada yuqoridagi fikrlar isbotini kuzatish mumkin:

Juvon –

Bir-ikki oq quyuq sochida, -

Suratga tikilar, tikilar

Va xotira bisotin titkilar.

Xayolda jonlanar chaqin ko'z ko'z burgut.

Parchada kelinning aniq portreti berilgan. Uning sochiga oq oralagan, ammo hali quyuq, qalin va bu uning go'zalligini, husn-u tarovatini yo'qotmaganini bildiradi. Parchada "tikilar" so'zining takror qo'llash yordamida ayolning botiniy olamiga, xayoliga e'tibor qaratiladi. Chunki suratga qayta va qayta tikilishdan maqsad, suratdagi yigitni xayolda jonlantirish bo'ladi. Bundan tashqari, o'sha yigit bilan o'tkazilgan masrur onlar, uning pokiza ziynatiga manguga muhrlanib joy olgani, endi bu muqaddas yerga boshqa kishining nigohi, surati joylanmasligiga ishora qiladi. Sababi u yerda "*chaqin ko'z burgut*" yashaydi, deyishga to'la asos bor. She'ning shu yerida shoir o'quvchiga o'zini o'sha ayol bilan solishtirish, undagi sadoqat va matonat bilan o'z irodasini solishtirish imkonini ham beradi. Bu shoirning ijodiy niyatini ham ko'rsatadi.

Xayrlashuv...

– Omon qayting... unutmaman...

– Qaytarman seni deb, ko'p zor etmayman...

Faqat bir iltimos:

Hozir o'pganim –

SHu lablardan o'zga bir kimsa

Qaysi kunki, bir bor o'psa,

O'sha kuni – mening o'lganim... [43]

Lirik syujetda xayrlashuv sahnasi sifatidan keltirilgan ushbu dialog she'r mazmuniy kompozitsiyasining mohiyatini belgilaydi. Ya'ni yigit urushga ketar chog'ida kelinga qat'iy talab qo'ygan va qiz ham shunga qat'iy amal qilishga va'da bergan. To'g'ri, she'rda va'da berish qismi ifodalanmagan. Ammo kelinning amaliy faoliyati tasviri, she'rning umumiy mazmunidan kelin uchun boshqa odamga ko'ngil qo'yish, erini o'limga olib kelishini biladi. She'rda aynan xayrlashuv chog'dagi ushbu suhbatning berilishi, aniqrog'i, kelinning xotirasida qayta tiklanishi ortidan kelinning sadoqatini kuzatish mumkin. Kelin timsolida katta muhabbat egasining, so'z va amal birligini o'z borlig'i deb bilgan ayol obrazi, sadoqat va o'zining ozgina baxtli kuni uchun butun umrini bag'ishlab, o'sha oydin kunlar yodi, erining hurmati uchun o'zini fido qilib yashayotgan jasoratli ayol tasviri namoyon bo'ladi. Chunki pokiza qalb ko'zqusiga solingan ilk muhabbat tasvirini o'chirish yoki ustiga boshqa surat solish asosiy maqsad, ulug' estetik idealni yo'qotishga olib keladi. Agar kelin o'rtamiyona shaxs bo'lganda, men yashashim kerak, hayotga bir marta klaman, degan niyatda boshqa turmush qurishi mumkin edi. Kelin esa buni istamaydi. Chunki ozgina o'lsa-da birga kechirilgan turmush, qalbidagi muhabbat buyuk qudrat ekanligini anglagan ayol haqiqiy shaxs edi. SHuning uchun u ulkan qalb, qudratli ruh va metin iroda sohibi deyishga loyiq obraz sanaladi. Bu gaplar balandparvoz gaplar emas, balki adabiyotning asl mohiyati insonga o'zligini anglatish ekanligini ko'rsatadigan haqiqiy tasvir, real obraz talqini hisoblanadi.

Kelin haqidagi iliq gaplarni biz qaynonaga nisbatan ham qo'llay olamiz. U ham o'g'lining yodi bilan sobit yashaydi. Uni doimo yonida deb biladi:

Xona.

Ona kutadi.

Besh yil,

O'n yil,

o'n besh,

yigirma ...

– Onajon, ona!

Yo'qligimni bildirma!

– O'g'lim!...

Bu yerda ham onaning xotirasida o'g'lining hayotga tashna obrazi yashamoqda, yigit onasidan yo'qligini bilmaslikni so'ramoqda. Ona esa hayajon, armon bilan intilmoqda. U shunday hayotda hikmat ko'rdi. Umri mazmuni o'g'li yodi, uning qilgan ezgu ishini hurmatlab, e'zozlab o'tishga bag'ishlandi. Bu yerda vatan uchun jon fido qilgan farzandning jasoratiga shubha yo'q,

ADABIYOTSHUNOSLIK

ammo ona va kelinning matonati, irodasi ham qahramon jangchinkidan kam emas. Kelajak avlodga hayot qadrini bilish, tushunish uchun ibrat maktabiga aylandi. Shoir shu tariqa ikkita obrazni badiiy-g'oyaviy jihatdan mukammal tasvirlab, uni mazmuniy komponentlarini to'yintirib boradi. Endi obrazlar ham ham yoshi ulug', lekin o'z ahdiga, xayoliga sodiq holda yashaydi:

Qishloq chetida
Ikki ayol yashar.biri – etmishlarda,
Biri – qirq yashar.
Biri kelin,
Biri – qaynona.
Ular hanuz kutar mardona, –
Vatan sharafiga umrin naqsh etib,
Lolaga aylangan umidni...

Mazkur parcha she'rning yakuniy qismi bo'lib, unda ayollar qishloq chetida, demakki, dunyodan bir chetda o'z ichki olami bilan yashayotgani tasvirlangan. Ularning hayotiy mazmunini umid, kelajakka ishonch va, eng muhimi, biri o'g'li, biri esa erining yorqin xotirasi tashkil etadi. Ular yetuk badiiy-g'oyaviy fazilatlar, murakkab ruhiy vaziyat timsoli sifatida e'tirofqa loyiq sanaladi. Bundan tashqari, bu ikki ayol aslida bir oila bo'lib, ularni yigit (onaga – o'g'il, kelin — er) bog'lab turadi. Bu yerda oila qadriyatlar ham muqaddasligi ko'rsatilgan. Agar kelin boshqa oila qurib ketsa, oila buziladi. Kampir yolg'iz qoladi, yigitga berilgan va'da buziladi.

Xullas, shoir qator ijtimoiy muammolarni, zamonaviy oilaning ma'naviy qo'rg'onini yemirayotgan illatlarni badiiy tahlil etadi. O'quvchiga Vatanga muhabbat, ayol sadoqati, oila muqaddasligi kabi g'oyalarni etkazib beradi. Yosh avlodni ajdodlardan ibrat olishga chaqiradi.

XULOSA

1. Tahlillardan ko'rinadiki, XX asr ikkinchi yarmidan boshlab, o'zbek she'riyatida ayol obrazining o'ziga xos tasviri, oilani alohida qadriyat sifatida ifodalash hamda urush va uning salbiy oqibatlarini natijasida o'zbek oilalari, ayniqsa, ayol boshidan kechirgan mashaqqatlarini badiiy aks ettirish bugungi kun uchun ham dolzarblik kasb etadi. Chunki yangi asrda ayolning jamiyatdagi o'rni, ayol oila uchun asos bo'lishi, urushning jamiyatga og'riqli ta'sirini, eng avvalo, ayol turmush o'rtog'i, ona sifatida boshidan ko'chirganini shoirlar o'z she'rlarida ta'sir yoritib berishgan.

2. Abdulla Sher kabi shoir obrazli ifoda, obraz yaratish, badiiy-estetik konsepsiyasini o'quvchiga etkazishda metafora, epitet, portret kabi badiiy tasviriy vositalardan hamda ularning mohiyatini, individual shakliy-uslubiy izlanishlarini sintezlashga harakat qilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashr. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 416 b.
2. Oripova G.M. Mustaqillik davri o'zbek she'riyatining g'oyaviy-estetik va badiiy xususiyatlari. Filolog. fan. fals. dokt (PhD) disser. – Farg'ona, 2019. – 149 b
3. Rasulov A. Badiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: SHarq, 2007. – 336 b.
4. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. — T.: 2007.— 260 b.
5. Fedorov V.V. Poeticheskiy mir. / Teoriya literatury. Tom 1. – Moskva: IMLI im. M.Gorkogo, 2005. – 302.
6. Sharafiddinov O. So'z boshi o'rnida / SHer, Abdulla.Gul yillar, bulbul yillar. Kichik saylanma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – B.6-8.
7. Sher, Abdulla.Gul yillar, bulbul yillar. Kichik saylanma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 428 b.
8. Ekkerman, Yohann Peter. Gyote bilan gurunglar. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 632 b.
9. The category of space and time of tercets KV Yulchiyev – Scientific journal of the Fergana State University, 2019. №2. – p.131-134.
10. Qur'onov D. Nazariy qaydlar. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 128 b.